

KIMYO 8-SINF 31-35&

	SAVOL	JAVOB
1	Oltinugurtning qaysi oksidi tabiatda vulqon gazlarida va tabiiy ko'mirning yonishidan hosil bo'lgan gazlar tarkibida uchraydi?	SO ₂
2	1 hajm suvda qancha hajm SO ₂ eriydi?	36
3	SO ₂ qanday maqsadlarda qo'llaniladi?	Organik bo'yoqlarni rangsizlantirishda, mikroorganizmlarni o'ldirishda, quruq turshak tayyorlashda, ba'zi rezavor mevalarni yetiltirishda
4	Suyuq SO ₂ nima maqsadda ishlatiladi?	Neftni tozalashda
5	SO ₂ ning havodagi konsentratsiyasi qancha miqdordan ortishi turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi?	0,03—0,05 mg/l
6	Qaysi oksid 45°C da qaynaydigan, 17°C da oq kristall massaga aylanadigan rangsiz suyuqlik?	SO ₃
7	Sulfat kislota qaysi metallar bilan ta'sirlashmaydi?	Kumush, oltin, platina, konsentratsiyasi 100 % ga yaqin bo'lganda temir bilan ta'sirlashmaydi
8	Suvsiz natriy sulfat nima maqsadlarda ishlatiladi?	Shisha va soda ishlab chiqarishda, tibbiyot va veterinariyada turli dori-darmonlar tayyorlashda
9	Glauber tuzining formulasi qanday?	Na ₂ SO ₄ · 10H ₂ O
10	Sulfat kislota qanday maqsadlarda ishlatiladi?	Bo'yoq moddalarni olishda, mineral o'g'it olishda, akkumulatorlarda elektrolit, turli xildagi sulfatlarni olishda, har xil kislotalarni olishda, neft mahsulotlarini tozalashda, portlovchi moddalarni olishda, tibbiyotda, o'simliklarni himoya qiluvchi vositalarni olishda
11	Tabiiy gipsning formulasi qanday?	CaSO ₄ · 2H ₂ O
12	Tabiiy gips 150—170°C da qizdirilganda 3/4 qism suvni chiqarib yuborib qaysi mahsulotni hosil qiladi?	CaSO ₄ · 1/2H ₂ O
13	Mis kuporosining formulasi qanday?	CuSO ₄ · 5H ₂ O
14	Mis kuporosi qanday maqsadlarda ishlatiladi?	Metallar sirtini mis qoplami bilan qoplashda, o'simlik zararkunandalariga qarshi kurashda
15	Temir kuporosining formulasi qanday?	FeSO ₄ · 7H ₂ O
16	Temir kuporosi qanday rangda bo'ladi?	To'q-yashil
17	Temir kuporosi qanday maqsadlarda ishlatiladi?	O'simlik zararkunandalariga qarshi kurashda, turli bo'yoqlar tayyorlashda
18	Kimyoviy reaksiyada ishtirok etayotgan moddalarning konsentratsiyalarini vaqt birligi ichida o'zgarishi nima deb ataladi?	Kimyoviy reaksiya tezligi
19	Kimyoviy reaksiyalarni tezlashtiradigan, ammo o'zi o'zgar olmay qoladigan moddalar nima deyiladi?	Katalizatorlar
20	moddalarning kimyoviy reaksiyaga kirishish imkoniyatini susaytiradigan moddalar nima deb ataladi?	Ingibitor
21	Ayni bir sharoitda qarama-qarshi tomonga boradigan	Qaytar reaksiyalar

	reaksiyalar nima deyiladi?	
22	To'g'ri reaksiya tezligi bilan teskari reaksiya tezligi tenglashgan holat nima deb ataladi?	Kimyoviy muvozanat
	Sanoatda sulfat kislota ishlab chiqarish uchun qaysi xomashyolardan foydalaniladi?	Sof oltingugurt — S, temir kolchedan (pirit) — FeS ₂ , rangli metallarning sulfidlari — CuS, ZnS, PbS, vodorod sulfid — H ₂ S.
23	Sanoatda xomashyodan sulfat kislota ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonlar qanday bosqichlardan iborat?	1. Oltingugurt (IV)-oksidni olish 2. Oltingugurt (IV)-oksidni tozalash. 3. Oltingugurt (IV)-oksidini oksidlash. 4. Oltingugurt (VI)- oksidni olish.
24	Piritning mayda zarrachalari bilan havoning aralashmasi nima deyiladi?	Qaynovchi qatlam
25	Kuydirish pechidan chiqayotgan SO ₂ qanday qurilmalarda tozalanadi?	Siklon va elektrofiltr
26	Katalizatorlar qanday xususiyatarga ega bo'lishi kerak?	a) arzon bo'lishi; b) katalitik donorlarga chidamli bo'lishi; d) uzoq muddatga yetishi